



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 /ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozo Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozo Komil Bahromovich</i>	122
34	ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ И ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМАТИКИ «СТАТИСТИКА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ» <i>Сиддиков Алишер Журакулович, Зокирова Муниса Жамолiddин кизи</i>	125
35	TA'LIM SIFATINING MEHNAT BOZORIDAGI BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRI <i>Hamroyeva Dilso'z Yahoyevna, Ro'ziyeva Shaxruza Sherali qizi</i>	131
36	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING NAZARIYASINI SHAKLLANISHI <i>Isakova Naima Ikromjonovna</i>	134

37	O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI <i>Qosimova Hilola Jamshedovna</i>	138
38	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING SUG'URTA BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI <i>Xakimzoda Maftuna, Yusuf qizi</i>	143
39	O'ZBEKISTONDA TURIZM MARKETINGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH <i>Ikramova Nasiba Axmadovna</i>	146
40	LOGISTIKA TIZIMLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Abdaturapova Dildora Farxodjon qizi</i>	149
41	SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI <i>Djumaniyazov Shavkat Raximovich</i>	151
42	O'ZBEKISTON SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matkarimova Iroda Muxtorovna</i>	155
43	YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI <i>Yoqubova Fotimaxon Baxromjonovna</i>	159
44	O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA ISLOM BANK XIZMATLARINI YO'LGA QO'YISHNING DOLZARBLIGI VA IKKILIK BANK TIZIMI <i>Sohibnazarov Abdurashid Abduvohidovich</i>	162
45	O'ZBEKISTONDA KIBERJINOYAT RISKLARINI STRATEGIK BOSHQARISHNI HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI <i>Xasanov Umidjon Yusupovich</i>	167
46	CLOUD-BASED MANAGEMENT SYSTEMS AND THEIR IMPACT ON UNIVERSITY GOVERNANCE: A PROPOSED PLS-SEM FRAMEWORK FOR HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN <i>Olimjonov Abbosjon Olimjonovich</i>	170
47	ПРОГНОЗНО-ПЛАНОВАЯ СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И СБАЛАНСИРОВАННОСТИ РЫНКА ТРУДА <i>Холбаева Сабина Рустамовна</i>	173
48	TURIZM IQTISODIYOTIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI <i>Jalolov Otabek Oybek o'g'li</i>	177
49	MAHALLA TIZIMIDA MADANIY LOYIHALARNI BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN IJTIMOY-IQTISODIY MODELI: JAMOATCHILIK ISHTIROKI, RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INSTITUTSIONAL ISHONCH YONDASHUVI <i>Umarova Roxilaxon Xaliljon qizi</i>	181
50	KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA «YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY TALQINI <i>Aripov Oybek Abdullayevich</i>	185
51	ENHANCING THE MECHANISMS OF HIGHER EDUCATION QUALITY ASSURANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL GOVERNANCE <i>Rakhimov Olim Khamidovich, Zhang Meimei</i>	188
52	TURIZM SUG'URTASIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH: TRCM MODELI VA PARAMETRIK SUG'URTA ASOSIDA <i>Maksudova Umeda Sharifovna</i>	194
53	AGROSANOAT MAJMUINI RAQAMLI BOSHQARISH – ZAMON TALABIDIR <i>Kuldashev Erkin</i>	197

54	<i>HUDUDLAR IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION EKOTIZIMLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI</i> <i>Maxamatova Malika Abdurashid qizi</i>	201
55	<i>MECHANISMS FOR THE USE OF INTELLECTUAL ALGORITHMS IN OPTIMIZING CONSTRUCTION COSTS AND DEVELOPING SERVICE PROVISION BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE</i> <i>Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich</i>	205
56	<i>DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA KONSESSIYA SHARTNOMALARI VA SPV MEXANIZMIDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI</i> <i>Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	209

“O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'liqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o'rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o'rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O'zbekinvest eksport-import sug'urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug'urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo'jayor Musurmanovich (TDIU “Sug'urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug'urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo'limi boshlig'i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo'yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o'g'li (TMC institute “Milliy ta'lim yo'nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo'yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo'lim boshlig'i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug'urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma'mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo'limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug'urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo'minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA KONSESSIYA SHARTNOMALARI VA SPV MEXANIZMIDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI

Ollokulova Feruza Mansurovna

Termiz davlat universiteti doktoranti, PhD

Email: ollokulovaf@tersu.uz

Annotatsiya: Maqolada davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda konsessiya shartnomalari va maxsus loyiha kompaniyalari (SPV) mexanizmining nazariy hamda amaliy asoslari tadqiq etilgan. Xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti qiyosiy tahlil qilinib, konsessiya shartnomalarining iqtisodiy mohiyati, SPV mexanizmining loyihaviy moliyalashtirishdagi o'rni, risklarni taqsimlash tamoyillari hamda infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo'nalishlari asoslangan. Tadqiqot natijasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish, xalqaro moliya institutlari resurslarini keng jalb etish va loyihalarni raqamli monitoring qilish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, konsessiya shartnomasi, SPV, maxsus loyiha kompaniyasi, loyihaviy moliyalashtirish, infratuzilma, investitsiya, risklarni boshqarish, xalqaro moliya institutlari, raqamli monitoring.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of using concession agreements and Special Purpose Vehicle (SPV) mechanisms in financing Public-Private Partnership (PPP) projects. A comparative analysis of international experience and the practice of Uzbekistan is conducted, highlighting the economic nature of concession agreements, the role of SPVs in project finance, risk allocation principles, and approaches to improving infrastructure project financing. Based on the research findings, scientific recommendations are proposed to enhance PPP financing mechanisms, expand the participation of international financial institutions, and implement digital monitoring systems for PPP projects.

Keywords: public-private partnership, concession agreement, Special Purpose Vehicle (SPV), project finance, infrastructure, investment, risk management, international financial institutions, digital monitoring.

Абстрактный: В статье исследованы теоретические и практические основы применения концессионных соглашений и механизма специальных проектных компаний (SPV) при финансировании проектов государственно-частного партнерства. Проведен сравнительный анализ международного опыта и практики Узбекистана, раскрыта экономическая сущность концессионных соглашений, роль SPV в проектном финансировании, механизмы распределения рисков и пути повышения эффективности финансирования инфраструктурных проектов. Разработаны научно обоснованные рекомендации по совершенствованию механизмов финансирования проектов ГЧП, расширению участия международных финансовых институтов и внедрению цифровых систем мониторинга.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, концессионное соглашение, SPV, специальная проектная компания, проектное финансирование, инфраструктура, инвестиции, управление рисками, международные финансовые институты, цифровой мониторинг.

Kirish (Введение/Introduction).

Mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish hamda infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishda zamonaviy mexanizmlarni joriy etish davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirish, investitsion faollikni oshirish va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda globalashuv jarayonlarining jadallashuvi, urbanizatsiya sur'atlarining ortishi hamda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasiga bo'lgan talabning tobora kuchayib borishi davlatlarning moliyaviy resurslariga qo'yilayotgan talablarni sezilarli darajada oshirmoqda. Albatta bunday sharoitda davlatning mavjud moliyaviy imkoniyatlari barcha infratuzilmaviy ehtiyojlarni mustaqil ravishda qoplash uchun yetarli bo'lmisligi sababli, xususiy kapitalni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga faol jalb etish dolzarb vazifalardan biriga aylanishi tabiiy hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, transport, energetika, sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xizmatlar va raqamli infratuzilma kabi kapital sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarda davlat mablag'larining cheklanganligi xususiy investitsiyalarni faol jalb etishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli davlat va biznes manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi, investitsion resurslarni safarbar etuvchi hamda infratuzilmaviy loyihalarni uzoq muddatli moliyalashtirishni ta'minlovchi zamonaviy institutsional mexanizm sifatida xalqaro miqyosda keng qo'llanilmoqda. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda konsessiya shartnomalari, loyihaviy moliyalashtirish (Project Finance), maxsus loyiha kompaniyalari (Special Purpose Vehicle – SPV), davlat kafolatlari hamda xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi moliyalashtirish usulidan keng foydalanilmoqda. Mazkur amaliyot

infratuzilmaviy loyihalarga uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy risklarni samarali boshqarish, loyiha ishtirokchilari o'rtasida vakolat va majburiyatlarni aniq taqsimlash hamda davlat budjeti yukini kamaytirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Singapur va Janubiy Koreya tajribasi konsessiya shartnomalari va SPV mexanizmining infratuzilmaviy loyihalar samaradorligini oshirishdagi muhim o'rni haqida namoyon etmoqda.

Mazkur holatlar davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda konsessiya shartnomalari va SPV mexanizmining nazariy hamda amaliy asoslarini kengroq tadqiq etish, rivojlangan mamlakatlar tajribasini umumlashtirish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan mazkur maqolada konsessiya shartnomalarining iqtisodiy mohiyati, SPV mexanizmining loyihaviy moliyalashtirishdagi o'rni, xalqaro tajribalar hamda milliy amaliyotning o'ziga xos xususiyatlari kompleks tahlil qilinib, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmi, konsessiya shartnomalari, loyihaviy moliyalashtirish (Project Finance), maxsus loyiha kompaniyalari (SPV) faoliyati hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi investitsion hamkorlikni takomillashtirish masalalari bo'yicha mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur ilmiy ishlarda davlat-xususiy sheriklik institutsional modeli, investitsion resurslarni

safarbar etish, risklarni taqsimlash, xalqaro moliya institutlari ishtirokini kengaytirish va infratuzilmaviy loyihalarni uzoq muddatli moliyalashtirishning samarali mexanizmi alohida e'tibor qaratilgan.

Ashok Kumar va Sushila Soriya tomonidan olib borilgan tadqiqotda transport sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy, institutsional va loyiha omillari kompleks baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, aholi jon boshiga YaIM, fond bozori kapitallashuvi, siyosiy barqarorlik, davlat boshqaruvi sifati, tartibga solish samaradorligi hamda loyiha hajmi DXSh moliyalashtirilishini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi [2]. Olatoyese Zaccheus Oni va Clinton Ohis Aigbavboa tomonidan olib borilgan tadqiqotda iqtisodiy islohotlarning qurilish sohasidagi davlat-xususiy sheriklik modellariga ta'siri empirik jihatdan baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, fiskal va monetar islohotlar faqat kuchli institutsional salohiyat, makroiqtisodiy barqarorlik hamda samarali huquqiy tartibga solish bilan uyg'unlashadigan DXSh loyihalarining moliyaviy samaradorligini oshiradi [3]. Emmanuel Chidiebere Eze va Ernest Effah Ameyaw tomonidan olib borilgan tadqiqotda infratuzilmaviy davlat-xususiy sheriklik loyihalarida blokcheyn texnologiyasi asosidagi aqlli shartnomalar (Blockchain-enabled Smart Contracts)ni qo'llashning ustuvor yo'nalishlari va afzalliklari empirik jihatdan baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, blokcheyn texnologiyasi to'lovlarni avtomatlashtirish va markazlashmagan tarzda amalga oshirish, ta'minot zanjiri shaffofligini oshirish, shartnoma ijrosini avtomatik nazorat qilish hamda nizolarni muqobil hal etish mexanizmini takomillashtirish imkonini beradi [4]. Makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya darajasi, moliyalashtirish qiymati, bozor talabi, tartibga solish sifati hamda investitsion muhit konsessiya muddatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Mualliflar konsessiya muddatini belgilashda faqat loyiha ichki ko'rsatkichlariga emas, balki tashqi iqtisodiy muhit va biznes sikllariga ham kompleks yondashish zarurligini ta'kidlaydilar. Bunday yondashuv davlat va xususiy sherik manfaatlari muvozanatini ta'minlash, risklarni oqilona taqsimlash hamda transport infratuzilmasi loyihalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi [5].

M.A.Deryabina davlat-xususiy sheriklikni davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi zamonaviy institutsional mexanizm sifatida baholaydi. Muallifning ta'kidlashicha, DXShning samaradorligi tomonlar o'rtasida vakolat, javobgarlik va risklarning oqilona taqsimlanishi, shuningdek, uzoq muddatli shartnomaviy munosabatlarning huquqiy kafolatlanganligiga bog'liq [6]. Lomonosova davlat-xususiy sheriklikni davlat va biznes o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikning samarali institutsional shakli sifatida baholaydi. Muallifning ta'kidlashicha, DXShning asosiy maqsadi davlat va xususiy sektor resurslari, vakolatlari hamda boshqaruv salohiyatini birlashtirish orqali ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalarni samarali amalga oshirishdan iborat [7].

Davlat-xususiy sheriklikni davlat va xususiy sektor resurslari, moliyaviy salohiyati hamda boshqaruv tajribasini integratsiyalash orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiruvchi samarali mexanizmdir. Mualliflarning ta'kidlashicha, DXSh infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish, budget xarajatlarini optimallashtirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda risklarni o'zaro taqsimlash imkonini beradi. Shuningdek, davlat tomonidan huquqiy kafolatlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari va boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi xususiy investorlar ishonchini oshirib, uzoq muddatli hamkorlikning barqarorligini ta'minlaydi [8]. Ataniyazova davlat-xususiy sheriklikni infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish va davlat xizmatlari sifatini oshirishning zamonaviy institutsional mexanizmi sifatida baholaydi. Muallifning ta'kidlashicha, DXShning samaradorligi mustahkam normativ-huquqiy baza, davlat va xususiy sektor manfaatlarining uyg'unligi hamda uzoq muddatli hamkorlik tamoyillariga bog'liq. Yevropa Ittifoqi, AQSH va BRIKS mamlakatlari tajribasi asosida davlat xizmatlarini ko'rsatishda xususiy sektor resurslari va boshqaruv salohiyatidan samarali foydalanish investitsion faollikni oshirish hamda infratuzilmaviy loyihalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashi ilmiy jihatdan asoslangan [9]. Ergasheva davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish zarurligini asoslaydi. Muallif Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Singapur, Turkiya, Xitoy va Janubiy Koreya tajribalarini qiyosiy tahlil qilib, DXSh loyihalarining muvaffaqiyati institutsional muhit, huquqiy barqarorlik, risklarni oqilona taqsimlash va samarali monitoring tizimiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuningdek, O'zbekiston amaliyotida PESTEL va SWOT tahlillari asosida investitsion muhitni takomillashtirish hamda davlat, xususiy sektor va xalqaro moliya institutlari hamkorligini kuchaytirish zarurligi ilmiy asoslangan [10].

Yuqorida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy qarashlarni umumlashtirish asosida ta'kidlash mumkinki, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish, investitsion faollikni oshirish, davlat budjeti yukini kamaytirish hamda xususiy sektor resurslari va boshqaruv salohiyatidan samarali foydalanishning muhim institutsional mexanizmi hisoblanadi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar asosan davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asoslari, moliyalashtirish manbalari, risklarni boshqarish yoki alohida tarmoqlardagi amaliyotini yoritishga qaratilgan bo'lib, konsessiya shartnomalari va maxsus loyiha kompaniyalari (SPV) asosida loyihalarni moliyalashtirishning o'zaro integratsiyalashgan mexanizmi, ularning investitsion samaradorlikka ta'siri hamda zamonaviy raqamli boshqaruv vositalari bilan uyg'unlashgan holda qo'llash masalalari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda kiberjinoiyat risklarini strategik boshqarishning huquqiy asoslarini tahlil qilish uchun sifat va miqdoriy tadqiqot usullaridan kompleks ravishda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini huquqiy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va risklarni baholash usullari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlik va axborot xavfsizligi sohasiga oid qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlari o'rganildi. Jumladan, kiberxavfsizlikni ta'minlash, axborot resurslarini himoya qilish va kiberjinoiyatlarga qarshi kurashishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazaning mazmuni hamda amaliy ahamiyati tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil usuli qo'llanilib, O'zbekistonning kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy mexanizmlari rivojlangan davlatlar tajribasi bilan taqqoslandi. Bunda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar, kiberjinoiyatlarga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy amaliyotlar o'rganildi. [7]

Tadqiqotning empirik qismi ochiq statistik ma'lumotlar, davlat organlari hisobotlari, xalqaro reytinglar va ilmiy manbalarga asoslandi. Kiberjinoiyatlar soni, ularning turlari, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlar hamda kiberxavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy omillar tahlil qilindi. Risklarni strategik boshqarish nuqtai nazaridan mavjud tahdidlar aniqlanib, ularning ehtimollik va ta'sir darajasi baholandi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida kiberjinoiyat risklarini boshqarishning huquqiy, institutsional va tashkiliy elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganildi. Natijada O'zbekistonda kiberjinoiyat risklarini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi huquqiy mexanizmlarning amaldagi holati baholandi hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur metodologiya kiberjinoiyat risklarini strategik boshqarishning huquqiy asoslarini kompleks baholash, mavjud muammolarni aniqlash va milliy kiberxavfsizlik tizimini rivojlantirish istiqbollarni belgilash imkonini berdi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results). DXSh loyihalarni amalga oshirish, ularni topshirish, foydalanish, ekspluatatsiya qilish tomonlar o'rtasida aniq shartlar asosida kelishiladigan shartnomalar yoki boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi hujjatlar asosida tartibga solinadi. Xalqaro amaliyot tajribalariga muvofiq DXSh mexanizmi asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshiruvchi quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllarni tasniflash mumkin:

- konsessiya shartnomalari;
- DXSh shartnomalari (klassik davlat-xususiy sheriklik bitimlari);
- maxsus investitsiya shartnomasi;
- investitsiya shartnomasi;
- ofset xarid shartnomasi;
- energiya servis kontraktlari.

Mamlakat qonunchiligiga ko'ra, "konsessiya - davlat-xususiy sheriklikning shakllaridan biri bo'lib, bunda davlat xususiy sherikka konsessiya shartnomasida ko'zda tutilgan xo'jalik faoliyatining muayyan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma bergan holda mol-mulkni va yer uchstaklarini taqdim etadi"¹. Xalqaro ilmiy nashrlar, konsessiya shartnomasi DXSh modellarning turlaridan, ushbu sohadagi eng rivojlangan, kompleks va istiqbolli shakllardan biri ekanligi qayd etiladi. Konsessiyaning muhim jihati shundaki, davlat sheriklik munosabatlari doirasida konsessiya shartnomasining predmeti hisoblangan mulk ob'ekting (odatda infratuzilma ob'ekti) to'laonli egasi bo'lib qoladi va belgilangan muddat davomida ushbu ob'ekt bilan bog'liq funksiyalarni

¹ O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuni 3-moddasi.

(amaliy jihatdan ob'ektni boshqarish huquqini) amalga oshirish uchun xususiy sherikka vakolat beradi, ob'ektning normal faoliyatini yuritishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tegishli huquq va vakolatlarni topshiradi.

Konsessiya shartnomalari, aksariyat hollarda, jamoat infratuzilmasi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan va yirik investitsiyalar talab qilinadigan sohalarida keng qo'llaniladi. Jumladan, transport infratuzilmasi (avtomobil, temir yo'llari, aeroportlar, portlar), kommunal xizmatlar (suv ta'minoti, energetika), ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Konsessiya kelishuvlarining muhim jihatlari quyidagilar kiradi: amal qilish muddati. Konsessiya shartnomalari uzoq muddatga tuziladi va bu davr mobaynida konsessioner (xususiy sherik) kiritilgan investitsiyalarni qoplashga, va foyda olishi kerak.

Investitsion majburiyatlar. Konsessioner, odatda, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish yoki yangi ob'ektlarni yaratish bo'yicha ma'lum investitsion majburiyatlarni zimmasiga oladi.

Risklarni taqsimlash. Konsessiya shartnomalarining muhim xususiyati davlat va xususiy sherik o'rtasida risklarning aniq taqsimlanadi. Davlat, odatda, regulativ va ijtimoiy risklarni o'z zimmasiga qoldiradi, iqtisodiy (tijorat) risklar esa xususiy sherik (konsessioner) zimmasiga yuklanadi.

Davlatga to'lovlar yoki davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Konsessiya shartnomasi shartlariga qarab, konsessioner (xususiy sherik) davlatga muntazam ravishda konsessiya to'lovlarini amalga oshirishi yoki aksincha, loyiha amalga oshirilishini ta'minlash uchun davlat tomonidan ma'lum shakldagi qo'llab-quvvatlash choralarini (soliq imtiyozlari yoki subsidiyalari) olishi mumkin.

Tomonlarning huquq va majburiyatlari. Konsessiya shartnomalarida tomonlarning huquqlari va majburiyatlari aniq belgilab qo'yiladi. Jumladan, xizmat ko'rsatish standartlari, ushbu xizmatlarning bajarilishi ustidan monitoring va nazorat qilish tartibi, tomonlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish mexanizmi aniq belgilab qo'yilgan.

Ushbu shartnomalarda ikki tomon ishtirok etadi:

1. Konsedent – konsessiyani taqdim etuvchi davlat organi yoki mahalliy hokimiyat. Konsedent konsessionerga belgilangan shartlar asosida infratuzilma ob'ektidan foydalanish, uni egalik qilish yoki uni boshqarish huquqini topshiradi, buning evaziga esa odatda haq (konsessiya to'lovi) oladi. O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, davlat sherigi - O'zbekiston Respublikasi va (yoki) davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan vakolat berilgan boshqa yuridik shaxslar yoki ularning birlashmalari;

2. Konsessioner – yakka tartibdagi tadbirkor yoki/yoxud xorijiy yuridik shaxs; oddiy sheriklik shartnomasi (qo'shma faoliyat to'g'risidagi shartnoma) asosida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda faoliyat yurituvchi ikki yoki undan ortiq yuridik shaxslarning birlashmasi (konsorsium) bo'lishi mumkin. O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, talabgor - davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish va tenderda ishtirok etishdan manfaatdor bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining yoki chet davlatning qonunchiligiga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs yoki yuridik shaxslarning birlashmasidan iborat bo'ladi.

Konsessiya shartnomalari tomonlar uchun muayyan afzalliklarni ta'minlaydi:

1. Konsedent (davlat tomoni) uchun afzalliklar:

Investitsiyalarni jalb qilish. Davlat konsessiya orqali infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish uchun byudjet mablag'laridan tashqari xususiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Byudjet yukining kamayishi. Konsessiyalar orqali loyihalarning amalga oshirilishi davlat byudjetining moliyaviy yukini sezilarli darajada kamaytiradi, zero asosiy investitsion xarajatlar va tijorat risklari xususiy sherik tomonidan o'z zimmasiga olinadi.

Faoliyat samaradorligining oshishi. Xususiy sektor aktivlarini boshqarishda, davlat sektori bilan qiyosiy taqqoslanganda, samaraliroq ish yuritadi va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Innovatsiyalarni joriy qilish. Xususiy kompaniyalar, daromad va rentabellikni oshirish maqsadida aktivlarni boshqarish, xizmat ko'rsatish jarayonlarida yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni faol qo'llaydilar.

Iqtisodiy rivojlanish. Konsessiya loyihalari yangi ish o'rinlarini yaratishga va iqtisodiyotning boshqa tegishli tarmoqlarining rivojlanishiga yordam beradi.

2. Konsessioner (xususiy sherik) uchun afzalliklar:

Resurslardan foydalanish imkoniyati. Konsessiya kelishuvi orqali xususiy kompaniyalar davlat yoki mahalliy mulkni boshqarish,

shuningdek, boshqa yo'llar orqali ega bo'lishi qiyin bo'lgan tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kapital uchun foydali investitsiya imkoniyati. Konsessiya asosidagi loyihalar uzoq muddat davomida barqaror va ishonchli daromad manbasini yaratadi, shu sababli ular investorlar uchun jozibali hisoblanadi.

Barqarorlik va oldindan bashorat qilish imkoniyati. Konsessiya shartnomalari, qoida bo'yicha, uzoq muddatga tuziladi, xususiy sherikning biznes faoliyati uchun huquqiy himoya va barqarorlikni ta'minlaydi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Konsessiya bitimlari doirasida xususiy kompaniyalar davlat tomonidan huquqiy tartibga solish, hamda faoliyatni samarali yuritish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda qo'llab-quvvatlashga ega bo'ladi.

Risklarni taqsimlash. Aksariyat holatlarda loyiha bilan bog'liq risklar davlat va xususiy sherik o'rtasida taqsimlanadi, bu esa xususiy investorlarga moliyaviy risklarni kamaytirish imkoniyatini beradi.

O'zbekistonda konsessiya shartnomalaridan DXSh bo'yicha loyihalarida keng foydalanib kelinmoqda, jumladan:

- Energetika: Elektr stansiyalari qurilishi va ekspluatatsiyasi.
- Transport: Yo'llar, temir yo'llar va aeroportlar infratuzilmasi.
- Sog'liqni saqlash: Shifoxonalar va tibbiy markazlar qurilishi.
- Ta'lim: Maktablar va oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasi.
- Kommunal xizmatlar: Suv ta'minoti, kanalizatsiya va chiqindilarni boshqarish.

Quyidagi jadvalda energetika, sog'liqni saqlash, transport sohalarida konsessiya shartnomasi bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha ma'lumot keltirilgan (1-jadval).

PSA shartnomalari bo'yicha to'htaladigan bo'lsak, DXSh va PSA shartnomalari ham neft-gaz sohasida keng qo'llaniladigan ikki xil shartnoma turi hisoblanadi. PSA (Production sharing agreement) – mahsulot taqsimoti to'g'risidagi shartnoma bo'lib, neft va gaz resurslarini izlash, qazib olish va ularni sotishdan tushgan daromadni davlat va investor o'rtasida qanday taqsimlanishini belgilaydi. Mazkur shartnomada xususiy kompaniya tomonidan loyiha to'liq moliyalashtirilsada, lekin qazib olingan mahsulotni bir qismi davlatga, qolgan qismi esa o'ziga tegishli hisoblanadi. Shartnomaning muhim jihatlari quyidagilardan iborat: investor qidiruv va qazish xarajatlarini o'z zimmasiga oladi; xarajatlar qoplangandan so'ng daromadga ega bo'lish boshlanadi; Xarajatlarni qoplash va foyda uchun tushunchalari mavjud; davlat resurslarga egalik huquqini saqlab qoladi. Qo'llanish sohasi, neft va gaz konlarini o'zlashtirishda keng tarqalgan. 1-jadvaldan ko'rinadiki, O'zbekistonda energetika sohasi bo'yicha eng yirik DXSh loyihalaridan biri “Qandim-Xauzak-Shodi” gaz loyihasi hisoblanadi. Loyihaning asosiy ishtirokchisi Rossianing “LUKOIL” kompaniyasi (90%) va “O'zbekneftgaz” (10%) kompaniyalari hisoblanadi. Shartnoma turi mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitim (PSA) bo'lib bu bitim konsessiyaga o'xshash mexanizm asosida amalga oshiriladi. Loyihaning muddati 2004-yilda imzolangan bo'lib, 2046-yilgacha amal qiladi².

1-jadval

Konsessiya shartnomalari asosida qabul qilingan DXSh loyihalari haqida ma'lumot³

Loyiha nomi	Soha	Shartnoma turi	Xususiyatlar
Qandim-Xauzak-Shodi	Energetika	PSA (konsessiyaga o'xshash)	Katta gaz zaxiralari, infratuzilma rivoji
O'zbekiston GTL	Energetika	DXSh (konsessiyaga o'xshash)	Yuqori texnologiyali yoqilg'i ishlab chiqarish
Dializ markazlari	Sog'liqni saqlash	Xizmat ko'rsatish konsessiyasi	Toshkent, Nukus, Samarqand, Andijon va boshqa hududlarda dializ markazlari qurish
Tibbiy uskunalarni lizing asosida ta'minlash	Sog'liqni saqlash	DXSh (konsessiyaga o'xshash)	Konsessiya asosida sog'liqni saqlash muassasalariga rentgen, MRT, laboratoriya uskunalarini o'rnatiladi va xususiy operator xizmat ko'rsatadi.

DXSh tarkibining muhim elementlaridan biri loyihalashtirish kompaniya (SPV/SPC)lari hisoblanadi. Mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq: “maxsus loyihalashtirish kompaniyasi - tender g'olibi, zaxiradagi g'olib, xususiy tashabbuskor yoki to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar ishtirokchisi tomonidan faqat davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun tashkil etilgan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik

² <https://lukoil.ru/Business/Upstream/KeyProjects/Kandym-Khauzak-Shady>

³ Muallif tomonidan tuzildi

shaxs; talabgor - davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishdan va tenderda ishtirok etishdan manfaatdor bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining yoki chet davlatning qonunchiligiga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs yoki yuridik shaxslarning birlashmasi⁴.

SPV (Special Purpose Vehicle) yoki SPC (Special Purpose Company) – bu muayyan loyiha yoki moliyaviy operatsiyani amalga oshirish uchun tashkil etilgan maxsus yuridik shaxsdir. «Maxsus loyiha kompaniyasi» (Special Purpose Vehicle/SPV yoki Special Purpose Company/SPC)termini ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lib, so'nggi o'n yilliklardagi global iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida butun dunyoda keng foydalanilmoqda. Dastlabki davrlarda SPV (Special Purpose Vehicle) hamkor-kompaniyalar tomonidan moliyaviy javobgarlik va risklarni minimallashtirgan holda loyihalarni amalga oshirish uchun tuzilgan qo'shma korxonalar sifatida yondashilgan edi. Bugungi kunga kelib esa, maxsus loyiha kompaniyalari loyihaviy moliyalashtirishni amalga oshirishda, davlat-xususiy sheriklik loyihalarni bajarish hamda turli xil aktivlarni sek'yuritizatsiya qilish jarayonlarida keng foydalanilmoqda.

SPV ning DXSh loyihalaridagi asosiy roli quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Risklarni taqsimlash (ajratish): SPV asosiy kompaniyalardan alohida yuridik shaxs sifatida tashkil etiladi, bu esa asosiy kompaniyalarni qo'shimcha moliyaviy majburiyatlaridan himoya qilish bilan birga risklarni minimallashtirish imkonini beradi. Agar loyiha muvaffaqiyatsiz yakunlanadigan bo'lsa, asosiy kompaniyalar zarar ko'rmaydi balki barcha risklar SPVlarga tushadi.

Moliyalashtirishni soddalashtirish: SPV loyihani moliyalashtirish uchun qo'shimcha kreditlar va investitsiyalarni jalb qiladi. Bu, odatda, loyiha asosida olinadigan daromadlar orqali qarzlarni qaytarish imkonini beradi.

Loyihani boshqarish: SPV loyiha qurilishi, ekspluatatsiyasi va texnik xizmat ko'rsatish uchun ma'sul bo'ladi. Bu esa loyihaning boshqaruv jarayonlarini markazlashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Shartnomalar tuzish: SPV davlat organlari bilan asosiy shartnomalarni imzolaydi, bu esa loyihaning yuridik asoslarini mustahkamlash bilan birga vakolat va vazifalarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda mamlakatimizda amal qilayotgan DXSh loyihalarini va undagi SPVlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan (2-jadval). Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi so'nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishning asosiy vositalaridan biri sifatida shakllandi. O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi bu borada qator islohotlarni amalga oshirdi. O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik sohasida tub o'zgarishlar 2019 yilda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" Qonun qabul qilinishi bilan boshlandi. Ushbu hujjat DXShning asosiy tamoyillari, tashabbuslarni tayyorlash va amalga oshirish tartibini aniq belgiladi. Shu asosda 2021–2024 yillarda yuzlab DXSh loyihalarini amalga oshirishga huquqiy asos yaratildi. Bundan tashqari, Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan sog'liqni saqlash, ta'lim, energetika sohalarda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Qozog'istonda DXSh jarayonlari biroz ilgari boshlangan bo'lib, 2015 yilda qabul qilingan "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" Qonun asosiy me'yoriy hujjat sifatida shakllandi. 2016-2017 yillarda ushbu qonunga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, DXShni amalga oshirish jarayonlari soddalashtirildi va mahalliy (viloyat) loyihalarga ham keng yo'l ochildi. Shuningdek, Qozog'istonda maxsus "Qozog'iston davlat-xususiy sheriklik markazi" AJ faoliyati tizimli muvofiqlashtiruvchi sifatida tashkil etildi.

2-jadval

O'zbekistonda DXSh va SPV asosidagi amaliy loyihalar⁵

Soha	Loyiha nomi	SPV	Davlat hamkori	Loyiha qiymati	Muddat / Holat
Sog'liqni saqlash	Toshkent klinik-dagnostik laboratoriyasi	Health Lab Plus LLC	Sog'liqni saqlash vazirligi	101,9 mlrd. so'm	15 yil
Sog'liqni saqlash	Farg'ona ko'p tarmoqli	G'olib ishtirokchi tashkil etadigan	Sog'liqni saqlash	Aniqlanmoqda	Aniqlanmoqda

	shifoxonasi	kompaniya	vazirligi		
Transp ort	Toshkent-Andijon avtomobil yo'li	Xususiy sektor ishtirokchilari	Transp ort vazirligi	5,35 mlrd. AQSh dollari	Loyiha tayyorlanmoqda
Transp ort	Toshkent-Samarqand avtomobil yo'li	Xususiy sektor ishtirokchilari	Transp ort vazirligi	1,4 mlrd. AQSh dollari	Loyiha tayyorlanmoqda
Ta'lim	Oltiariq nodavlat ta'lim muassasasi	Oltiariq Smart School	MMT vazirligi	4,25. mlrd so'm	30 yil

O'zbekistonda DXSh loyihalarini muvofiqlashtirish va ekspertizadan o'tkazish bo'yicha asosiy vakolat Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklik agentligi zimmasiga yuklatilgan. Markazning vazifalariga DXSh loyihalarini ro'yxatga olish, loyiha tashabbuslarini baholash, tender hujjatlarini tayyorlash va konsultatsion yordam ko'rsatish kiradi. Qozog'istonda esa Qozog'iston davlat-xususiy sheriklik markazi milliy vakolatli institut sifatida faoliyat yuritib, barcha sohalarda yirik va o'rta loyihalarni tayyorlash, standart hujjatlar ishlab chiqish va monitoring qilish bilan shug'ullanadi. Viloyat hokimiyatlari va tegishli vazirliklar ham o'z vakolat doirasida loyihalarni amalga oshiradi. Shu sababli Qozog'istonda DXSh boshqaruvining yanada markazlashtirilgan va aniq mexanizmlarga ega tizimi shakllangan.

Yuqoridagi qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Qozog'iston DXSh sohasida huquqiy va institutsional bazani ilgari shakllantirgan va ko'proq hajmdagi loyihalarni amalga oshirgan. O'zbekiston esa qisqa muddat ichida sezilarli yutuqlarga erishib, moliyaviy rag'batlantirish va qonunchilik sohasida jadal rivojlanmoqda. Shu bilan birga, har ikki mamlakatda DXSh tizimini takomillashtirish uchun monitoring va xalqaro standartlar integratsiyasi ustuvor yo'nalish sifatida saqlanib qolmoqda.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda konsessiya shartnomalari davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi eng samarali huquqiy-iqtisodiy mexanizmdan biri hisoblanadi. Mazkur amaliyot orqali davlat infratuzilmaviy obyektlarga egalik huquqini saqlab qolgan holda, ularni qurish, modernizatsiya qilish va boshqarish jarayonlariga xususiy kapitalni keng jalb etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Konsessiya shartnomalari uzoq muddatli investitsiyalarni rag'batlantirishi, davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirishi, xizmatlar sifatini oshirishi hamda davlat va xususiy sherik o'rtasida huquq va majburiyatlarni aniq belgilashi bilan boshqa DXSh shakllaridan ajralib turadi. Shuning uchun O'zbekistonda konsessiya mexanizmini xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish infratuzilmaviy loyihalar samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot davomida davlat-xususiy sheriklik loyihalarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlat va xususiy sherik o'rtasida risklarni iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib oqilona taqsimlashga bog'liqligi aniqlandi. Siyosiy, huquqiy, moliyaviy, ekologik va operatsion risklarning har bir loyiha ishtirokchisi zimmasiga ularni boshqarish imkoniyatidan kelib chiqib yuklatilishi loyiha barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, huquqiy-me'yoriy barqarorlik, shartnoma shartlarining aniqligi va davlat kafolatlarining mavjudligi investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Natijada risklarni boshqarishning takomillashtirilgan mexanizmi davlat-xususiy sheriklik loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, kapital qiymatini pasaytirish hamda investitsion faollikni rag'batlantirishga xizmat qilishi asoslandi.

Xalqaro amaliyotdan ma'lum bo'ldiki, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Singapur va Janubiy Koreyada konsessiya shartnomalari hamda SPV mexanizmi davlat-xususiy sheriklik loyihalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu davlatlarda loyihaviy moliyalashtirish, mustaqil SPV kompaniyalari, xalqaro kapital bozorlari va institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish orqali davlat budjeti yuki kamaytirilgan hamda xususiy investitsiyalar hajmi sezilarli oshirilgan. Mazkur tajribalarni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish, ayniqsa transport, energetika, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarda konsessiya loyihalarini amalga oshirishda SPV mexanizmidan keng foydalanish, davlat kafolatlarini takomillashtirish va xalqaro moliya

⁴ O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuni 3-moddasi.

⁵ <https://www.pppd.uz/uz> - ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

instituti bilan hamkorlikni kuchaytirish investitsion muhitni yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Literatury/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. Ashok Kumar, Sushila Soriya, Financing transport sector through public-private partnerships (PPPs): a macroeconomic, governance and project-specific perspective, *Transforming Government: People, Process and Policy*, Volume 20, Issue 3, 2026, Pages 636-652.
3. Olatoyese Zaccheus Oni, Clinton Ohis Aigbavboa, Economic reforms and their influence on public-private partnership (PPP) models in Nigerian construction industry, *Journal of Engineering, Design and Technology*, Volume 24, Issue 5, 2026, Pages 1257-1278.
4. Emmanuel Chidiebere Eze, Ernest Effah Ameyaw, Potential application areas and benefits of blockchain-enabled smart contracts adoption in infrastructure Public-private partnership (PPP) projects, *Sustainable Futures*, Volume 9, 2025, 100477, ISSN 2666-1888.
5. Giulio Mangano, Gabriel Castelblanco, Filippo Maria Ottaviani, Andrea Ferrari, Alberto De Marco, External Business Drivers of Concession Period in Transport PPPs: An Empirical Investigation, *Procedia Computer Science*, Volume 256, 2025, Pages 1599-1606.
6. Дерябина М.А. Государственно-частное партнерство: теория и практика развития // Стратегические решения и риск-менеджмент. – 2016. – № 2 (95). - С. 72-81.
7. Лапоносова Г.А. Государственно-частное партнерство как форма сотрудничества государства и бизнеса//Труды Института бизнеса Белорусского государственного университета. – Минск, 2020. – С. 168–171.
8. Hashimova S.N., Abdikarimova A.A. Davlat-xususiy sheriklik mohiyati, ahamiyati va afzalliklari // *Science and Education Scientific Journal*. – 2023. – Vol. 4. – Issue 5. – B. 1450–1453. – ISSN 2181-0842.
9. Ataniyazova M. Davlat-xususiy sheriklik: mohiyati, funksiyalari va jahon amaliyoti // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. – 2025. – Vol. 3. – No. 1. – B. 7–11. DOI: 10.5281/zenodo.14755635.
10. Ergasheva D. Davlat-xususiy sheriklik bo'yicha xalqaro tajribani O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. – 2025. - T. 3. - № 8. - B. 42-48.
11. www.napp.uz - O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy veb-sayti.